



O`QUV AMALIYOTI MASHG`ULOTLARIDA “RIVOJLANISH MARKAZLARIDA BOLALAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH” INTEGRATSİYASI HAQIDA.

Karimova Dilbar Tashpulatovna

Toshkent pedagogika kolleji

Annotatsiya: Mustaqillik yillarda ko`hna tariximiz boy merosimiz milliy davlatchiligidan muqaddas dinimiz urf-odat va an'analarimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag`rikenglik hamjihatlik kabi olijanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg`usi yuragimizning tub-tubidan o`rin oldi. Komil inson g`oyasi-umumbashariy g`oya. Ya`ni, bu-jami odamzodga hos orzu. Lekin uni amalga oshirishda har bir xalq o`zining tarixi milliy xususiyatlari, an`ana va qadriyatlardan kelib chiqadi.

Maktabgacha ta'limdagи integratsiya ta'limning tarkibiy qismlarining o'quvchilarga umumiyy ta'sirini, ta'lim ishining ijobiy natijasini ta'minlaydi, bu ularning har birining alohida ta'siridan ko'ra ko'p marta faolroq va afzalroqdir. Integratsiya ta'lim va shaxsiy rivojlanishning ustuvor maqsadlari va vazifalarini amalga oshirishdan iborat bo'lib, bizni atrofimizdagи dunyo haqida yaxlit g'oyalarni shakllantirishga asoslangan. Ta'lim va rivojlanishning nafaqat mazmunli, balki maqsad va vazifalarini amalga oshirishda; dasturning turli bo'limlari (mashg`ulotlararo integratsiya...) aloqalarni mustahkamlashda; ta'lim usullari va usullarining o'zaro ta'sirida va bolalarning bevosita ta'lim faoliyatini tashkil etishda (uslubiy integratsiya); bolalar faoliyati turlarini sintez qilishda; kattalar va bolalarning birlashtirilgan faoliyatini va murakkab tuzilishga ega bo'lgan bolalarning mustaqil faoliyatini tashkil etishning integratsiyalashgan shakllarini joriy etishda samarali xisoblanadi. Bunday yondashuvga tayanib MTT bolalarini ko'p tomonlama yaxlit tasavvurlarni shakllantirish mumkin.

“Rivojlanish markazlarida bolalar faoliyatini tashkil etish” o`quv amaliyoti mashg`ulotlarida o'quvchilarga (bo'lajak tarbiyachilarga) MTTda maktabga tayyorlov guruhida, qurish yasash, konstruksiyalash va matematika, syujetli rolli o'yinlar va dramalashtirish, til va nutq, ilm fan va tabiat, san'at markazlariga bolalar bilan olib boriladigan ishlarda rivojlanish markazlaridagi faoliyatlar integratsiyasi asosida loyihalash ishlari bo'yicha tavsiyalar, ko`rsatmalar berish lozim.

Integrallashtirilgan mashg`ulotlarning maqsadi - bu bolalar uchun ijodiy, badiiy, o'yinchoq, mavjud bo'lgan faoliyat turlari bilan konseptsiya, ob'yekt yoki hodisani keng qamrovli, ongli ravishda o'rganishdir. Maktabgacha ta'lim jarayonining quyidagi fa'oliyat shakllarida integral loyihalashga asoslangan ta'limni amalga oshirish mumkin:

- markazlardagi faoliyat;
- frontal mashg`ulotlar;
- ta'limiy o'yinlar;
- sayr;



Tayanch iboralar: Integratsiya atamasi lotincha integratio - tiklash, to'ldirish, integer - butun so'zlaridan kelib chiqqan.

METROPOLITEN, metro-(yun. metropolis — bosh shahar, markaz) — ko‘p sonli yo‘lovchilarni tashishga mo‘ljallangan relsli tezyurar elektr transport turi. Ishonchli xavfsizlik tizimlari bilan jihozlanadi. Metropoliten yo‘llari yer ustida, yer yuzasida va yer ostida joylashishi mumkin.

Muzey-(qadimgi yunoncha: musion — „muzalarga bag‘ishlangan joy“) — tarixiy, moddiy va ma’naviy yodgorliklarni to‘plash, saqlash, o‘rganish va targ‘ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma’rifiy muassasa. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san’at asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo‘lgan tarixiy qimmatga ega qo‘lyozmalar, bosma hujjatlar, kitoblar) saqlanadi.

Kuranti-(frantsuzcha courant — yuguruvchi, oqib turgan) — ma’lum melodik ketma-ketlikda jiringlovchi sozlangan qo‘ng‘iroqlar to‘plamiga ega minora yoki katta xona soatining qadimiy nomi. Odatda qo‘ng‘iroqlar har soatda, yarim soatda, chorak soatda kichik musiqiy iborani ijro etadi, ba’zan soatning birinchi choragida ibora bir marta, ikkinchisida ikki marta, uchinchisida uch marta ijro etiladi.

Maktabga tayyorlov guruhi yoshidagi bolalarni “Shaharning diqqatiga sazovor joylari aks etgan suratlarga qarab hikoya tuzish” mavzusi “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturiga (mustaqil faoliyat) kiritilgan bo`lib, bunda biz “Amir Temur xiyoboni” haqida taqdimot asosida tushuncha bersak, uning atrofida joylashgan tarixiy obidalar bilan tanishtirsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Bugungi kunda bolalar “Amir Temur xiyoboni” haqida radio va televizorlarda lavhalar eshitishgan, teleko’rsatuvarlar ko’rishgan, “Amir Temur xiyoboni”da, metro bekatida ham bo‘lganlar bor. Bunda biz tarbiyachilar bolalarni shaharning diqqatga sazovor joylaridan “Amir Temur xiyoboni”ga ekskursiya uyushtirsak bo‘ladi.

Bunday ekskursiyani videotasmalar va fotosuratlar (taqdimot) orqali uyushtirish mumkin. Bunda tarbiyachi ilg’or pedagogik texnologiyalardan foydalanishi lozim. O‘zbekistonning milliy madaniy me’rosini yoritishda bolalarga beriladigan bilim oson o’zlashtirilishi, tushunarli bo’lishi uchun turli metod va usullardan foydalanishi, xiyoboning o’ziga xos hususiyati, u shaxarning markazida joylashganligi, uni atrofida joylashgan tarixiy obidalar haqida bilimlarni bolalar ongiga yetkazish tarbiyachi mahoratiga bog’liq. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi bolajonlar hayoti yanada qiziqarliroq o’tishi uchun, tarbiyachi o‘z ustida tinimsiz ish olib borishi, ijodiy yondoshishi va izlanishi lozim.

O`quvchilarga MTT-larda rivojlantirish markazlaridagi faoliyatlarni tashkil etishda bolalarga “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturida bolalarning ma’lum bir markazlardagi rivojlanish faoliyatida berilgan bilimlarni boshqa rivojlanish markazlarida ham takrorlash, mustahkamlash mumkinligini tushuntirish lozim. Bu quyidagicha ko`rinishda bo‘ladi:

Biz o`quvchilarga 9 aprel kuni buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur tavallud kuni nishonlanishini, bunga “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturida qaysi markazdagi faoliyatda Amir Temur haqida bolalar tushunchalarini kengaytirishimiz, maktabga tayyorlov guruhi



bolalari bilan markazlardagi faoliyatlarda qanday ishlar amalga oshirish mumkinligini so`raladi. (O`quvchilar fikrlari tinglanadi)

“Ilk qadam” Davlat o`quv dasturidagi oylik mavzular haftalarga bo`lingan. Masalan: maktabga tayyorlov guruhi, fevral oy, oylik mavzu “G`aroyib olam”, 1 haftasida “Til va Nutq” markazidagi mustaqil faoliyatda “Shaharning diqqatga sazovor joylari aks etgan suratlarga qarab hikoya tuzish” mavzusi olingan. Shahrimizning diqqatga sazovor joylaridan biri bu “Amir Temur xiyoboni”. Biz bu xiyobon bilan bolalarni videotasma yoki fotosur`atlar (taqdimot) asosida tanishtirishimiz mumkin.

O`quvchilarga taqdimot asosida “Amir Temur xiyoboni” namoish qilinadi, taqdimot davomida markazlardagi faoliyatlarni turli usulda tashkil etilishiga o`quvchilar e`tiborni qaratadi.

(O`quvchilarning taqdimot haqidagi fikr mulohazalari tinglanadi).

Mavzu: Maktabga tayyorlov guruhi yoshidagi bolalarni shaharning diqqatga sazovor joylaridan “Amir Temur xiyoboni” bilan tanishtirish.

Maqsad:Bolalarni shaharning diqqatga sazovor joylaridan “Amir Temur xiyoboni” bilan tanishtirish; O`zi yashab yurgan shaharining nomi, tarixi haqida qisqacha ma`lumot berish; Nutqda oddiy va murakkab gaplardan foydalangan holda bolalarga suratga qarab hikoya tuzishga o`rgatish, so`z lug`atini boyitish, to`g`ri nutqni shakllantirish. Bolalarning o`z shahrining arxitekturasi haqidagi bilimlarini mustahkamlash; Xiyoboning loyihasini tahlil qilish, qismlarning shakli, hajmini, joylashishini aniqlab (ijodiy) xiyobon qurish-yasashni o`rgatish; Suratli rasmlarni ko`rish orqali badiiy estetik didlarini o`stirish; Tabiatga bo`lgan muhabbat va tabiatga ehtiyyotkorona munosabatda bo`lish hissini tarbiyalash; Kattalar mehnatiga nisbatan to`g`ri munosabatni shakllantirish , shaxsiy sifatlarni rivojlantirish.

Rivojlanish vazifalari:O`zi yashab yurgan shaharining nomi, shaharning diqqatga sazovor joylarini, tarixini bilishi va u haqida gapirib berishni; xayoliy fikrlashni, tasavvurni, tashabbuskorlikni, jamoaviy ijodkorlikni va birgalikda ishlash qobiliyatini rivojlanantirish.

Ta'lim vazifalari:Bolalarni izlanish faoliyati va mustaqillikka jalb qilish; Mehnatsevarlikni tarbiyalash.

Dastlabki ish:“Ona yurtim O`zbekistonim”; Qurish-yasash va matematika “Mening shaxrim”; “Vatanimizning tarixiy shaharlari” (Samarqand, Buxoro, Xiva); “Zamonaviy shahar”; Bolalarni O`zbekistonning buyuk siymolari bilan tanishtirishda davom etish; Dovyurak sarkarda Sohibqiron Amir Temur haqida suhbatlar.

Metodlar: Suhbat, tushuntirish, tanishtirish, qayta hikoya qilish, savol-javob, mustaqil (ijodiy) faoliyat, fotosur`atlarni ko`rish, taxlil, o`yin, jismoniy daqiqa.

Kerakli jihozlar: Fotosuratlar, slaydlar, qurilish materiallari to'plami, lego to'plami, chiqindi materiallar, kichik o'yinchoqlar (qo`g`irchoqlar, daraxtlar, archalar, gullar, avtomobillar).

Rivojlanish markazlaridagi faoliyatlar integratsiyasi:

1. “Qurish-yasash va matematika” markazidagi faoliyat;
2. .“Syujetli-rolli o`yinlar va drammalashtirish” markazidagi faoliyat;



3. “Til va nutq” markazidagi faoliyat;
4. “Ilm-fan va tabiat” markazidagi faoliyat;
5. “San`at” markazidagi faoliyat.

Shaharning diqqatga sazovor joylaridan “Amir Temur xiyoboni” aks etgan suratlar taqdimoti jarayonida tarbiyachi qisqacha mavzu mazmunini quyidagicha yoritishi mumkin: (Mavzuni rivojlanish markazlarida qanday rejalashtirish va qanday tushuntirish sizning ixtiyoriningizda...)

- I-qism: Amir Temur xiyoboni fotosur`atlari taqdimoti ko`rsatiladi.
- Bolalar sizlarning orangizda Amir Temur xiyobonida kim bo`lgan?
 - Amir Temur xiyoboni degan gapni yana qayerda eshitgansiz? (metro bekati nomi)
 - Amir Temur kim edi?

Amir Temur (1336 yilning 9 aprelida) Kesh (Shaxrisabz)da tug'ilgan. (1405 yil 18 fevralda vafot etgan) Temurbekning yoshligi Keshda kechadi. Otasi Tarag`aybek o‘z chog‘ining odatlariga ko‘ra Temurbekka ot minish, ov qilish, yoydan o‘q otishni o‘rgatuvchilarni tayin qiladi. Temurbek bolaligidan mulohazali, kattalar gapini diqqat bilan tinglaydigan, kerak bo`lganda o‘z fikrini odob bilan ayta oladigan qo`rqmas, botir, to`g`ri so`z, g`ururli bola bo`lgan. Do`stlari orasida xurmatga sazovor bo`lib ular birgalikda ko`pincha turli o`yinlar o`ynashgan, o`yinlarga o`zi boshchilik qilar va g`olib bo`lar edi.

Amir Temur-buyuk shaxs, mashhur sarkarda, davlat arbobi, el-yurtini sevgan va uni mashhur qilgan inson. O‘zbekiston Respublikamizning poytaxti Toshkent shaxrimiz markazida “Amir Temur xiyoboni” joylashgan. O‘zbekiston mustaqilligining uch yilligi arafasida (1994 yil 31 avgust) maydon „Amir Temur maydoni“ deb qayta nomlandi. Uning markaziga haykaltarosh Ilhom Jabborovning bronzadan yasalgan dovyurak sarkarda Sohibqiron Amir Temurning otda o‘tirgan haykali o‘rnatildi.

Xiyobonda ta`mirlash ishlari (2009 yil rekonstruksiya) olib borilib unda yangi yo‘laklar yotqizildi, o‘rindiqlar o‘rnatildi va yoritgichlar almashtirildi, avval u yerda 100 yillik daraxtlar bor edi, ekilganiga 100 yildan oshgan eski daraxtlar kesilib, ko‘rkam, go‘zal va shinam bog‘-xiyobon vujudga keltirildi. Turli manzarali daraxtlar, gullar ekilib, zamonaviy favvoralar o‘rnatildi. Xiyobon hududida xashar uyuştirilib, tanib bo`lmas darajada o‘zgartirildi.

Daraxtlar kattalashib, bog‘ sayr qiluvchilar bilan to‘la boshladi. Xiyobonda kafelar va bir nechta muzqaymoq do‘konlari, shuningdek, gullar sotiladigan paviloni qurildi.

Bolalar daraxtlarning yoshini qanday bilish mumkin, bilishni xohlaysizmi? Daraxtlar bu o‘sadigan va uzoq umr ko‘radigan yer o`simliklarining turi. Bolalar bog`chasi yoki bog`ga borganingizda turli kattalikdagi va yo`g`onlikdagi daraxtlarni kuzatasiz. Daraxt qancha yoshda ekanligini uning poyasi yoki qolgan pastki qismidagi kesilgan doiralarga qarab aniqlashimiz mumkin? O’sish halqalarini hisoblamasdan, bu oson emas. Buni bilish, ularning yoshini hisoblash nisbatan oddiy: markazdan tashqarida, faqat halqalarni birma-bir hisoblappingiz kerak. Halqalar soni qancha bo`lsa daraxt shuncha yoshda bo`ladi.



Jismoniy daqqa:

Birga qo'l ushlashaylik,
Keng doira yasaylik,
Barcha do'stlarim bilan
Boramiz chap tomonga;
Boramiz o'ng tomonga;
Endi quvnoq va shodon

Qo'l ushlashib hammamiz,
Top'lanamiz barchamiz
Aylana markazida,
Tabassum qilib birga,
O'yin boshlaymiz yana,
Keling qo'shiling bizga!

II-qism: Amir Temur shaxsini Toshkentning markaziy qismi ramzi sifatida tanlash tasodifiy emas. Buyuk sarkarda va davlat arbobi, o'zbek davlatchiligi asoschisining timsoli poytaxt aholisini mustaqil davlatni yaxlit birlashtirishga, buyuk ajdodlarning ezgu ishlarini davom ettirishga chaqiradi. Haykal Amir Temurning o'tirgan holatini ifoda etadi. Hukmdor jangovar kiyimda, go'yoki g'alabali yurishdan qaytmoqda, chap qo'li bilan olovli otini jilovlamoqda, o'ng qo'li uni kutib olayotgan odamlar uzra ko'tarilgan va mamlakatda tinchlik, osoyishtalik hukm surishini ma'lum qilmoqda. Hukmdorning viqorli salobati va yarim bukilgan qo'li farovonlik va taraqqiyot ramzidir. Haykal o'rnatilgan tagkursida esa buyuk Temurning "Kuch – adolatdadur" shiorining to'rt tilda yozilganligini ko'ramiz.

Xiyobon atrofida bir qancha tarixiy obidalar joylashgan:

- Mana bu xiyobon atrofidagi "Amir Temur xiyoboni" metro bekati.
- Mana bu "O'zbekiston" mehmonxonasi esa ko'rinishidan ochiq kitobga o'xshaydi, u 17 qavatdan iborat. Mehmonxona Toshkentga turli davatlardan tashrif buyurgan mehmonlarga xizmat ko'rsatadi.

- Toshkent shahri markazida "Xalqaro anjumanlar saroyi" (2009-yil 28-avgustda) markazida barpo etildi. Bu yerda mamlakat miqyosida, shuningdek, e'tiborli xalqaro tashkilotlar faoliyati doirasida turli-tuman tadbirlar, uchrashuvlar, tantanalar o'tkaziladi. Saroydagagi gumbaz ustida tinchlik va baxt ramzi bo'lgan laylaklar haykali o'rnatilgan.

- Poytaxtimiz markazi Amir Temur xiyoboni yonida tarixiy obida bo'lib hisoblangan "Toshkent kurantlari" joylashgan. U fashizm ustidan qozonilgan G`alaba kunining ikki yilligi arafasida ochilgan va (1947 yil 9 maydan beri) xozirgi kunga qadar uzlusiz toxtamay ishlab kelmoqda. Mana bu Kurant soati. Kurant soat bonglari soat necha bo'lsa, shuncha marta bong uradi. Toshkent kuranti qurilishida milliy me'morlik va amaliy bezak san'ati an'analari qo'llanilgan.

III-qism: Toshkentda "Temuriylar tarixi davlat muzeyi" ochilgan (1996-yil 18-oktabr). Muzey Toshkent shahri markazida Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab qad



rostlagan. Muzey dumaloq shaklga ega, katta qovurg'ali gumbazli, ko'k mayolika bilan bezatilgan. Sharq me'morchiligining eng yaxshi an'analarida gumbazning ichki qismi bo'yalgan. Nafis ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan, u yupqa qatlamlı oltin barg bilan qoplangan.

Taqdimotdan song bolalarga ko`rgan narsalarini qayta hikoya qilish – taqdimot vaqtida eshitgan narsalarini gapirib berish taklif etiladi.

(Hikoya qilish – biron bir voqeani ravon qilib mufassal gapirib berishdir). Bola tarbiyachi tomonidan aytib berilgan tayyor mazmunni gapiradi, gapirganda tayyor nutqiy shakllardan- so'zlardan, jumlalardan, ularning izchilligidan foydalanadi. Tarbiyachi esa bolaning hikoya qilganda uning nutq boyligining oshganligi, lug`atiga yangi so`zlarning qo'shilganligiga e'tibor qaratishi lozim.

"Amir Temur xiyoboni" jamoaviy qurish-yasash faoliyati. (Jamoaviy qurish-yasash faoliyatini o'sha kuni, yoki boshqa kuni ham o'tkazsa bo`ladi)

Bolalar ko`rgan narsalarini hikoya qilib bergenlaridan so`ng ularga jamoaviy-qurish-yasash faoliyati uchun qurilish materiallaridan (qurilish to`plamlari, lego konstruktorlar); Mayda o`ynichoqlardan (mayda qo`g`irchoqlar, daraxtlar, archalar, gullar...) foydalanib ana shunday xiyobon qurishni taklif etish mumkin.

Faoliyatni olib borilishi:

1. "Amir Temur xiyoboni" to`liq ko`rinishi fotosur`ati beriladi.(Unda bolalardan xiyobonda nimalar borligi so`raladi)
2. Bolalar bilan xiyobon qurilishini rejalashtirish.
3. Xiyobonni konstruktorlash.
4. Bolalar ishlarini ko`rib chiqish (muhokama qilish, ko`rsatma berish namuna ko`rsatish) va rag`batlantirish.

Qo'shimcha qism: Tarbiyachi bolalarga ijodiy qurilmalarini mayda o`ynichoqlar, (daraxtlar, gullar va shu kabilar) bilan bezash mumkinligini, xiyobondagi kafelar, muzqaymoq do'konlari, shuningdek, gullar sotiladigan pavilyonni, o`rindiqlar, favvorolarni, xiyobonni orab turuvchi panjaralarni, yo`laklarni qurilish materiallaridan qurishni taklif etadi, rasmga aloqador so`zlar bilan tanishtiradi va bolalarga ijodiy ishlari uchun qurilish materiallarini tanlashni va qurish-yasash ishini boshlashni taklif etadi.

Bolalar "Amir Temur xiyoboni" to`liq ko`rinishi fotosur`atini ko'zdan kechirib, ularga qanday material kerakligini, qanday ketma-ketlikda qurilishni amalga oshirishlarini nomlashadi va kim nima qurishini jamoa bo'lib muhokama qilishadi.

Qurilish jarayonida tarbiyachi yordam beradi, maslahat beradi va bolalarning faoliyatini nazorat qiladi (ularning birgalikdagi qurilishda o'zaro ishtirokini, kelishilgan holda funktsiyalarni taqsimlaydi). Ijodiy ish jarayonida tarbiyachi bolalarni jamoa bo'lib ishlashlariga, tasavvur doiralari kengayishiga, tozalikka axamiyat berish va hayot xavfsizligiga rioya qilishga e'tiborini qaratadi.

Jamoaviy qurish-yasash ishi yakunlangandan so`ng tarbiyachi bolalar o`z ijodlari bilan yaratgan xiyobonlarida "Biz quvnoq bog`bonlarmiz" syujetli-rolli o`ynashlarini taklif etadi. (mayda qo`g`irchoqlar, daraxtlar, archalar, gullar qurilgan xiyobonga joylashtirishadi.)



Shahar bo`ylab sayrni juda yaxshi ko`raman
Men bugungi sayrda xiyobonga boraman
Xiyobon juda go`zal, unda bor favvoralar,
Maydoni juda katta, hamma yoq gulu, bog`lar.

O`quvchilarga “Amir Temur xiyoboni” taqdimoti asosida bilim berishda faqat “Til va nutq” markazidagi faoliyatda emas balki qolgan markazlarda ham bu bilimlar takrorlanishi va mustahkamlanishi mumkinligi tushuntiriladi.

Rivojlanish markazlaridagi faoliyatlarni integratsiyasi esa-bu maktabgacha ta'lim mazmunining alohida ta'lim yo'nalishlarining o'zaro bog'liqligi, o'zaro ta'siri va o'zaro ta'siri holati (yoki bunday holatga olib keladigan jarayon), ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi.

Masalan, olib borilgan faoliyatda har bir markazda “Amir Temur xiyoboni” bilan bolalarni tanishtirish ishlari taxlil qilinganda quyidagilarni ko`rish mumkin.

1. “Qurish-yasash va matematika” markazi.

Jamoaviy-qurish-yasash faoliyatida: Bolalar mustaqil ijodiy xiyobon yasaydilar. Matematika mashg`ulotida bolalarni soat va uning turlari bilan tanishtirish vazifasi bor: Toshkent Kuranti bilan tanishuv.

2. “Syujetli-rolli o`yinlar va drammalashtirish” markazi faoliyati:

Tarbiyachi bolalar o`zlari ijodiy qurib yasagan xiyobonlarida “Biz quvnoq bog`bonlarmiz” syujetli-rolli o`yinni o`ynashlarini taklif etadi.

3. “Til va nutq” markazi.

O`zi yashab yurgan shaharining nomi, tarixi haqida qisqacha ma'lumot berish; Nutqda oddiy va murakkab gaplardan foydalangan holda bolalarga suratga qarab hikoya tuzishga o`rgatish, so`z lug`atini boyitish, to`g`ri nutqni shakllantiriladi.

4. “Ilm-fan va tabiat”markazi.

100 yildan oshgan eski daraxtlar kesilib, ko`rkam, go`zal va shinam bog`-xiyobon vujudga keltirildi. Turli manzarali daraxtlar, gullar ekilib, zamonaviy favvoralar o`rnatildi. Xiyobon hududida hashar uyuştirilib, tanib bo`lmas darajada o`zgartirildi. Daraxt qancha yoshda ekanligini aniqlashga o`rgatildi.

5. “San`at” markazi.

Xiyobon markaziga haykaltarosh Ilhom Jabborovning bronzadan yasalgan dovyurak sarkarda Sohibqiron Amir Temurning otda o'tirgan haykali o`rnatildi. Sharq me'morchiliginining eng yaxshi an'analarida gumbazning ichki qismi bo'yalgan. Nafis ganch o'ymakorligi bilan bezatilgan, u yupqa qatlamlı oltin barg bilan qoplangan.

Tadbirdan kutiladigan natija: Buyuk sarkarda sohibqiron Amir Temur Vatanga bo'lgan kuchli muhabbat, Vatanga sodiqligi, o'z Vatanini ravnaqi uchun kurashgani, bu yo'lida kerak bo'lsa, jonini ham berishga tayyor bo'lganini Amir Temyr timsolida tushunadilar va bolalarda ham Vatanga muhabbat hissi uyg'onadi. Jonajon o'llkasini hurmat qilish, e`zozlash, uning boyliklaridan g`ururlanish, tuyg`usi shakllanadi. Insonlarni hurmat qilishni va tabiatni asrashni o`rganadi, kattalar mehnatiga nisbatan to`g`ri munosabat shakllanadi, shaxsiy sifatlari rivojlanadi, o`zining va o`zgalarning mehnatini qadrlash tuyg`usi shakllanadi, o`z fikrlarini aniq va tushunarli bayon etishni o`rganadilar.



Tengdoshlari bilan hissiy muloqot sharoitida o`z tajribalarini qo`llaydilar, turli faoliyat davomida ijodkorlikni namoyon etadilar. Fikrlash, nutqi, so`zlarni bir-biriga bog`lash ko`nikmalari rivojlanadi, faolligi oshadi, ruhiy holati, emotsional munosabati yaxshilanadi. Harakatlar rejasini tuzadi. Qurilish materiallari haqida tushunchaga ega. Mantiqiy fikrlash, diqqat, tasavvur o`sadi. Mayda motorika rivojlanadi. “Xiyobonda” o`yini orqali tengdoshlari o`rtasidagi do`stona munosabatlari shakllanadi.

Tarbiyachilar bolalariga ana shu usulda rivojlanish markazlardagi faoliyatlarni tashkil etsalar, (markazlardagi faoliyatlar ana shu usulda tuzilsa va tahlil etilsa) maktabgacha yoshdagi bolalar ta`limi va rivojlanishining “O`zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yilgan Davlat talablari”ni amalga oshirgan bo`lamiz.

Tarbiyachi uchu ma`lumot:

1. Toshkent kurant kompleksi avval bitta imoratdan iborat bo`lgan. 2009 yili Toshkentning 2200 yilligiga bag`ishlab birinchi kurantning yoniga ikkinchi kurant qurildi. Zilzila (1966) natijasida soat buzilgan, zudlik bilan ta`mirlanib, ishga tushirilgan. Toshkent kuranti shahar me`moriy ansamblining Markaziy xiyobonidagi tarkibiy qismidir. Toshkent kuranti qurilishida milliy me`morlik va amaliy bezak san`ati an`analari qo`llanilgan. G`ozgon marmari bilan qoplangan va jezdan ishlangan metall qismlari o`zaro uyg`unlashgan. Minoraning quyi qismiga O`zbekistonlik qahramonlar nomi bitilgan marmar lavha o`rnatalgan. Toshkent kuranti har chorak, yarim va bir soatda zang urib turadi. 1991 yilda ta`mirlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo`yiladigan Davlat talablari” O`RMTV Toshkent-2020 yil
2. “Ilk qadam” Davlat o`quv dasturi O`RMTV Toshkent-2022 yil
3. Foydalilanilgan internet manbalari:
 4. <https://www.google.com/search?client=firefox-b-d&q=amir+temur+xiyoboni+haqida>
 5. <https://www.google.com/search?client=firefox-b-d&q=amir+temur+metro>
 6. <https://www.google.com/search?client=firefox-b-d&q=xalqaro+anjumanlar+saroyi>
 7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Toshkent_kuranti
 8. <https://www.google.com/search?client=firefox-b-d&q=mustaqillik+haqida>
 9. https://uz.wikipedia.org/wiki/Amir_Temur.
 10. <https://www.google.com/search?client=firefox-b-d&q=Integratsuya+v+detskom+sadu>
 11. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-limda-integral-darslar-innovatsion-loyiha-sifatida>